

## BUXORO VILOYATIDA 1992 YILDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalash, OYLIK MAOSH

**Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li**

Osiyo Xalqaro universiteti,

"Ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti" Tarix va filologiya kafedrasи o'qituvchisi

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15753049>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1992 yilda Buxoro viloyatida aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** "G'amxo'rlik" markazi, "Birimiz ikki bo'lsin" dasturi, "Buxorogazsanoatqurilish", zayom, Qizil Yarim oy jamiyatি.

1992-yil barcha mablag'lar hisobidan 168,5 ming m<sup>2</sup> uy-joylar / sur'at 71,6 foiz /,1339 o'ringa maktab, / sur'at 37,5 foiz / 380 o'ringa yasli bog'cha / sur'at 35,2 foiz / 110 kishini qabul qilishga poliklinika qurib topshirilgan. Uy-joy madaniy maishiy obyektlarni ekspluatatsiyaga topshirish sur'atlarining pastligining sababi qurilish materiallari, konstruksiyalari, energiya resurslaari narxi bir necha marotaba qimmatlashgan va davlat kapital mablag'lari ham keskin kamayib ketdi. Davlat kapital mablag'lari yetishmasligi natijasida 24 ta maktab qurilishi to'xtab qolgan Olotda madaniyat uyi, Romitanda pionerlar saroyi, Kogonda musiqa maktabi, Qorako'lda kasalxona korpusi, Buxoro shahrida fizioterapivtika kasalxonasi, Romitan va Kogonda poliklinakalar qurilishi to'xtab qolgan. Olot, Qorako'l, Romitan, Shofirkon va Peshko'da yangi uy-joylar qurilishi noma'lum vaqtga qoldirilgan. Buxoro shahrida meditsina bilim yurtining o'quv binosi, 380 kishiga mo'ljallangan poliklinika, maktab, bolalar bog'chasi, sport kompleksi, harbiylar shaharchasi qurilishlari uchun mutlaqo mablag' yo'q<sup>1</sup>. Buning sabablaridan biri budget mablag'larining asosiy qismi aholi ijtimoiy muhofazasiga qaratilganidir. Bir kilogram un 23 so'm, bir kilogram shakar 55 so'mni tashlkil etadi. 1992 yil fevral oyidan boshlab nafaqaxo'rlar 350 so'm, mart oyidanan boshlab 550 so'm, iyun oyidan boshlab 1000 so'mgacha nafaqa qayta hisob-kitobdan chiqarilgan. Yolg'iz hamda keksayib qolgan fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash maqasadida viloyat hokimi sotsial ta'minot boshqarmasi oldida "G'amxo'rlik" markazi tashkil etilgan. Shahar va tumanlarda ushbu markazning 18 ta bo'limi faoliyat yuritgan. Bu bo'limlarda faoliyat yurituvchi xodimlar yolg'izlanib qolgan 1360 nafar urush qahramonlari va mehnat faxriylarga turli darajadagi (uy-joylarni tozalash, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish, dori-darmonlar bilan ta'minlash) xizmatlarni ko'rsatgan<sup>2</sup>. 1200 nafaqaxo'rlar uy-joy va kommunal xo'jalik to'lovlaridan ozod etilgan va ularga dori-darmonlar, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishda, transportdan foydalanishga imtiyozlar berilgan. Nogironlarni nogironlik aravachalari bilan ta'minlash muammosi hal etilmay qolgan va 200 nafar nogironlar aravchaga muhtoj bo'lgan. Vino, gazlama va viloyatda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni erkin tarzda sotishda ruxsat yo'qligi uchun korxonalarda bir necha yuz million so'mlik mahsulot to'planib qolgan<sup>3</sup>.

1992 yil 30 aprelda Buxoro viloyati faollari bilan president I.A.Karimov boshchiligidagi yig'ilish bo'lib o'tadi yig'ilishda 40 taga yaqin masala ko'rib chiqiladi. Viloyat aholisini oziq-ovqat va kundalik ro'zg'or buyumlari bilan ta'minlash masalasi kun tartibiga qo'yilib, oziq-ovqatmahsulotlari mayor bo'yicha yetishmayotganligi muhokama qilingan. Shakar yetkazib berish 90 foizni tashkil qilgan. Un yetishmagan asosan cho'l zonalarida bori 23 kunga yetgan.

<sup>1</sup> Buxoro viloyat davlat arxivи. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 6-yig'ma jild.15-varaq

<sup>2</sup> Buxoro viloyat davlat arxivи. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 6-yig'ma jild.16-varaq

<sup>3</sup> Buxoro viloyat davlat arxivи. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 6-yig'ma jild.17-varaq

Guruch belgilangan normadan kam bori ham qimmatlashib ketgan. Bozorda go'shtning narxi 60-70 so'mni tashkil qiladi. Yakshanba va bayram kunlari shashlik qilinyapti. I.A.Karimov shashlikni bir yilga man qilish to'g'risida taklif bergan<sup>4</sup>. Bir tonna bug'doyni xarid qilish 140-150 dollarga tushgan. So'mga aylantirilganda bir kilogram don 22-23 so'mni tashkil qilgan<sup>5</sup>. 1992 yilning 9 oyi mobaynida o'rtacha ish haqi 4,5 martaga oshgan. Qishloq xo'jaligida esa o'tgan yilga nisbatan 8-9 baravarga ko'paygan<sup>6</sup>. 1992 yil 1 iyulida minimal nafaqa miqdori 1000 so'mni tashkil etgan. Noyabr oyida bu ko'rsatkich 2000 so'mga yetgan. Konstitutsiya loyihasida "Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas" degan ko'rsatma belgilab berilgan. 1992 yilning 1 dekabridan 10 dekabrgacha respublikada Qizil Yarim oy jamiyatiga mablag' to'plash o'n kunligi o'tkazilgan bundan maqsad- yakka yolg'iz qolgan qariyalar, nogironlar va yetim-yesirlarga moddiy yordam ko'rsatish bo'lgan<sup>7</sup>.

"Birimiz ikki bo'lzin" dasturi bo'yicha 1992 yil noyabr oyigacha keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlari 1,5 mldr so'mdan oshgan. 2 ming tonnadan ortiq bug'doy, 26 ming tonna kartoshka, 3650 tonna guruch, 2,5 tonna go'sht, 17 mln dona tuxum, 233 tonna quruq choy olib kelgingan<sup>8</sup>. 1992 yilda 206 km vodoprovod va 648 kilometr gaz tarmoqlari qurilgan<sup>9</sup>. Aholini gaz bilan ta'minlashda quvurlarning narxi ko'tarilib ketganligi sababli Respublika ajratgan mablag'lar yetishmay qolgan. Mahalliy byudjetdan 7 mln so'm ajratilib quvurlar xarid qilingan. 1000 tonna paxta tolasini sotish antijasida topilgan 114 mln so'm mablag' "Buxorogazsanoatqurilish" trestiga to'lab berilgan. Buxoroda toza ichimlik suvi yetkazib berish uchun yana 950 mln so'mlik kapitalga ehtiyoj bo'lgan<sup>10</sup>. Pulning qadrsizlanishi, harx-navoning ko'tarilishi va ishlab chiqarish hajmining kamaygani istemol bozorining taqchil bo'lismiga olib kelgan. Buxoroda narx-navo boshqa mintaqalarga nisbatan past bo'lsada, oziq-ovqat mahsulotlari kamayib qolgan. Shoshilinch ravishda "200 kun" dasturi ishlab chiqilib Buxoroga boshqa mintaqalardan rejadagi 200 mln so'mlik o'rniغا 500 mln so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari va xalq istemoli mollari olib kelgingan. 1992 yilning bahorida ishlab chiqilgan "Birimiz ikki bo'lzin" dasturiga muvofiq sanoat va qurilishdagi ishchi ta'minoti bo'limlari, savdo tashkilotlari, turli shirkatlar viloyat aholisigamarkazlashtirilmagan holda 400 tonna shakar, 1400 tonna qandolatchilik mahsulotlari, 32 tonna kartoshka, 3200 tonna go'sht, 700 tonna baliq va boshqa turdag'i 2 mldr so'mlik oziq- ovqat mahsulotlari olib kelgingan<sup>11</sup>. 1992-yilning 11 oyi mobaynida respublika jamg'arma bankining viloyatdagi boshqarmasi idoralari tomonidan aholi tomonidan jamg'armalarga 595,0 mln so'm jalb qilingan<sup>12</sup>. Qisqa davr ichida 182 mln so'mga 1992-yilgi 12 foizli davlat zayomlari viloyat fuqarolariga sotilgan.

Bozor munosabatlari o'tish davrida ijtimoiy soha sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek, ilm-fan ayniqsa, mushkul ahvolda qolgan. Birinchi navbatda xalq ta'limiga katta e'tibor qaratilgan. Chunki 446 ta umumta'lim maktabi va 773 bolalar bog'chasida viloyatdagi barcha aholining chorak qismi ya'ni 357 nafar bolalar o'qigan va tarbiyalangan. Buxoro sharida turk litseyi ochilgan. Qorako'l, Jondor, Shofirkon va Peshku tumanlarida

<sup>4</sup> Buxoro viloyat davlat arxiv. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 6-yig'ma jild.85-varaq

<sup>5</sup> Buxoro viloyat davlat arxiv. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 6-yig'ma jild.88-varaq

<sup>6</sup> Buxoro viloyat davlat arxiv. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 6-yig'ma jild.116-varaq

<sup>7</sup> Buxoro viloyat davlat arxiv. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 6-yig'ma jild.117-varaq

<sup>8</sup> Buxoro viloyat davlat arxiv. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 6-yig'ma jild.116-varaq

<sup>9</sup> Buxoro viloyat davlat arxiv. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.71-varaq

<sup>10</sup> Buxoro viloyat davlat arxiv. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.72-varaq

<sup>11</sup> Buxoro viloyat davlat arxiv. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.73-varaq

<sup>12</sup> Buxoro viloyat davlat arxiv. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.74-varaq

qobiliyatli bolalar uchun maktab internatlar tashkil etilgan. Fanlar chuqur o'qitiladigan sinflar 190 taga yetkazilgan. Yosh tabiatshunoslar, texniklar, turistlar stansiyalari va o'quvchilar saroyi birlashtirilib ular asosida viloyat tarbiyaviy ishlar markazi tashkil etilgan. Moliyaviy ahvol yomon bo'lismiga qaramay, boshlang'ich sinf o'quvchilariga bepul nonushta berilmoqda, yuqori sinf o'quvchilari ovqat narxining yarmi byudjet hisobidan to'langan. 1992 yilning 11 oyi davomida bu maqsadlar uchun qariyb 80 mln so'm mablag' sarflangan. Prezident famoniga binoan o'qituvchilarning oylik maoshlari oshirilib, ular yashaydigan uylar xususiyashtirilgan, kommunal xizmatlar uchun imtiyozlar joriy qilingan. Pedagogika oliygohi universitetga aylantirilgan bo'lib Toshkent davlat texnika universitetining Buxoro filiali ochilgan. Reja-iqtisod texnikumi kolledj statusini olgan. Bir guruh yoshlar Turkiyadagi oly va o'rta maxsus o'quv yurtlariga o'qishga yuborilgan. Talabalar stipendiyasi qariyb 2 ming so'mga yetkazilgan<sup>13</sup>.

## REFERENCES

1. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat.5-yig'ma jild
2. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 6-yig'ma jild
3. Buxoro viloyat davlat arxivi 947-fond, 2604-delo ro'yxat-1
4. "Buxoronomo" gazetasi. 1992-yil 10 aprel
5. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). Modern Science and Research, 3(2), 1071-1073.
6. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE" RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. Modern Science and Research, 3(1), 568-572.
7. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 179-183.
8. Xayrullayev, U. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION.
9. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSIYASI. Modern Science and Research, 3(12), 843-851.
10. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HOKIMLIKLARINING MAVQEYI. Modern Science and Research, 3(12), 339-343.
11. Xayrullayev, U., Sayfutdinov, F., & Rahmonova, S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. Modern Science and Research, 4(1), 147-154.
12. Xayrullayev, U. (2025). BUXORO VILOYATINING IQTISODIY HOLATI (1990-1991 YILLAR). Modern Science and Research, 4(1), 1018-1024.
13. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 42(42).
14. Xayrullayev, U. F. (2023). 1918-1939 YILLARDA POLSHANING ICHKI SIYOSATIDAGI O 'ZGARISHLAR. SCHOLAR, 1(28), 337-340.
15. Xayrullayev, U. (2025). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO VILOYATIDAGI IJTIMOIY HOLAT. Modern Science and Research, 4(2), 1186-1193.

<sup>13</sup> Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.80-81 varaq

16. Xayrullayev, U., & Farhodjonova, Z. (2025). MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA BUXORO VILOYATIDAGI IQTISODIY VAZIYAT. Modern Science and Research, 4(2), 494-503.
17. Rahmonova, S., Xayrullayev, U., & Sayfutdinov, F. (2025). "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" НИНГ МОҲИЯТИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗИ, ХАРАКТЕРИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. Modern Science and Research, 4(1), 479-488.
18. Xayrullayev, U., Muydinov, B., & Yuldasheva, F. (2025). POLSHANING I JAHON URUSHIDAN KEYINGI AHVOLI. Modern Science and Research, 4(4), 36-48.
19. Boltayev, O., Yarashova, M., Xayrullayev, U., & Sadullayev, U. (2025). OYROT QABILASI VA ULARNING DAVLATCHILIK ASOSLARING SHAKLANISHIGA UMUMIY TAVSIF. Modern Science and Research, 4(3), 600-608.
20. Yarashova, M., Boltayev, O., Xayrullayev, U., & Sadullayev, U. (2025). BUXORO VOHASI AYOLLARINING AN'ANAVIY LIBOSLARI (XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA). Modern Science and Research, 4(3), 571-581.
21. Xayrullayev, U., Sadullayev, U., Yarashova, M., & Boltayev, O. (2025). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA QO 'SHNI DAVLATLARNING POLSHAGA NISBATAN YURITGAN SIYOSATI. Modern Science and Research, 4(3), 420-432.
22. Xayrullayev, U. (2025). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA POLSHANING IQTISODIY AHVOLI. *Modern Science and Research*, 4(3), 1056-1067.
23. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
24. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
25. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
26. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
27. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>
28. XORAZMSHOIDLAR DAVLATI HAYOTIDA TURKON XOTUNNING O'RNI. (2024). MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE, 2(4), 463-469. <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5192>
29. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). The coronation and campaigns of Alexander The Great. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 400–412. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11222912>
30. Muyiddinov Bekali. (2024). COVERAGE OF LEGAL ISSUES IN "AVESTO". МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 222–230. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12191420>

31. MUYIDDINOV BEKALI, & QORYOG'DIEV Z. (2022). ABOUT THE CONQUEST OF BUKHARA BY THE KHOREZMSHAHS. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(3), 158–161. Retrieved from <https://www.ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/383>
32. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). History of State Institutions in the Kushan State, Which Founded Statehood on the Territory of Central Asia. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 184–188. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4070>
33. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
34. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.
35. Gulyamov, A. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA ISTIQOMAT QILGAN MILLIY-ETNIK GURUHLAR. *Modern Science and Research*, 4(2), 1020-1028.
36. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 189-194.
37. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
38. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
39. Gulyamov, A., & Atoyeva, M. (2025). ABU ALI IBN SINO-ILM-FAN TARIXIDAGI BUYUK ALLOMA. *Modern Science and Research*, 4(3), 591-599.
40. Gulyamov, A. (2025). O 'RTA ASR SHAHARLARINING DEMOGRAFIK HOLATI, SHAHARLARNING KENGAYISHI, AHOLINING IJTIMOIY TARKIBI. *Modern Science and Research*, 4(3), 974-983.
41. Gulyamov, A. (2025). TARIX SAHIFALARIDA SOHIBQIRON AMIR TEMUR. *Modern Science and Research*, 4(4), 449-459.
42. Gulyamov, A. (2025). BUXORO VOHASIDA DINIY MAROSIM VA URF-ODATLARDAGI TRANSFARMATSIYA JARAYONLARINING ETNOGRAFIK TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1676-1686.
43. Gulyamov, A. (2025). G 'ARBIY YEVROPA O'RTA ASR SHAHARLARIGA AHOLI MIGRATSIYASI, MILLIY-ETNIK XUSUSIYATLARI. *Modern Science and Research*, 4(5), 1316-1322.
44. Haqqulov, M. (2025). NARSHAXIYNING" BUXORO TARIXI" ASARI TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1036-1045.
45. Haqqulov, M. (2025). THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF HADITH IN HISTORICAL ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 4(4), 467-474.
46. Haqqulov, M. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Modern Science and Research*, 4(3), 584-593.
47. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). THE TEACHER-STUDENT RELATIONSHIP BETWEEN IMAM AL-BUKHARI AND IMAM AT-TIR MIDHI. *Modern Science and Research*, 4(3), 440-447.

48. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Muyiddinov, B. (2025). SHARAFIDDIN ALI YAZDINING "ZAFARNOMA" ASARI TAHLILI. Modern Science and Research, 4(4), 398-408.
49. Haqqulov, M., Gulyamov, A., & Srojeva, G. (2025). JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNI. MILLIY HUKUMAT-TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 100-108.
50. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). Modern Science and Research, 4(2), 834-842.
51. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXTORIYNING "AL-JOME'AS SAHIH" ILMIY AHAMIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 472-476.
52. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. Journal of universal science research, 3(1 (Special issue)), 319-325.
53. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldasheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO 'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. Modern Science and Research, 4(2), 81-91.
54. Bahodir o'g'li, M. B. (2024). Avesto is an Ancient Written Monument Containing Information About the Life of the Peoples of Central Asia. Miasto Przyszłości, 53, 970–975. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4982>